O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 25 - mart 102-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 6 noyabrdagi 542-10-0-Q/23-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 343-son qarori asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 6-noyabrdagi 542-10-0-Q/23-son qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 6-noyabrdagi 542-10-0-Q/23-son qarori ma’lumot** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini bosqichma-bosqich isloh qilishning ustuvor vazifalari **etib belgilanganligi:**

ichimlik suvni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan samarali tizimni joriy etish, ichimlik suvni hisobga olish, suv hisoblagichlarni to‘liq o‘rnatish va yo‘qotishlarni kamaytirish, sohani raqamlashtirish, uzluksiz, sifatli va xavfsiz xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash;

tizimdagi tashkilotlar moliyaviy va iqtisodiy funksiyalarini mustaqil bajarishini ko‘zda tutgan holda korporativ boshqaruv tizimini tubdan yaxshilash;

sohada jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali ichimlik suvni tarqatish

jarayonlarida davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy qilish, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

mavjud suv inshootlari va tarmoqlariga hamda yakuniy iste’molchilarga suv hisoblagichlarni o‘rnatish orqali suv hajmi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish, sohada energiya tejovchi texnologiyalarni va qayta tiklanuvchi manbalarni keng joriy etish hisobiga ishlab chiqarish hamda yetkazib berish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish;

ichimlik suv ta’minoti korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish, debitor va kreditor qarzdorliklarni qisqartirish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish orqali ularning moliyaviy holatini yaxshilash;

tarif siyosatini kapital qo‘yilmalar va aktivlarni strategik boshqarish bilan uzviyligini ta’minlagan holda, ilg‘or xorijiy tajribaga asoslanib takomillashtirish hamda shu orqali sohani bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish;

iste’molchilarning to‘lov intizomini mustahkamlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha jamoatchilik kampaniyalarini amalga oshirish, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, sohada qo‘llanilayotgan normativlar va standartlarni zamonaviy talablar asosida yangilash vazifalari belgilanganligi;

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvardan boshlab ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflar mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar, joriy xarajatlar, tizim obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, soliqlar (suvning texnologik jihatdan normativdan yuqori darajada sarflanganligi va yo‘qotilganligi uchun soliqlardan tashqari) va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, “O‘zsuvta’minot” AJning saqlash xarajatlari hamda tashkilotlarning rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi;

ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar

uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan tariflar mazkur bandning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan xarajatlardan kam belgilangan taqdirda, ular o‘rtasidagi tafovut davlat buyurtmasi asosida Davlat budjetidan qoplab berilishi inobatga olinsin.

3. Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini takomillashtirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” 1-ilovaga muvofiq muvofiq;

2024-2026-yillarda davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish orqali ichimlik suv ta’minoti yo‘lga qo‘yiladigan aholi yashash punktlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

“O‘zsuvta’minot” AJ tomonidan xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga
oshirilayotgan loyihalar hisobiga 2024-2026-yillarda aholini ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlash dasturi 3-ilovaga muvofiq;

Markazlashgan suv ta’minoti qamrovi darajasi past bo‘lgan tumanlarda 2024-2026-yillarda ichimlik suv tizimlarini rivojlantirish dasturining yig‘ma parametrlari 4-ilovaga muvofiq;

2024-2026-yillarda “O‘zsuvta’minot” AJ tarkibidagi laboratoriyalarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash dasturi 5-ilovaga muvofiq;

“O‘zsuvta’minot” AJ korxonalarining “Hududiy elektr tarmoqlari” AJga o‘tkaziladigan nimstansiyalari ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq;

2024-yil 1-fevraldan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ichimlik va oqova suv yo‘nalishidagi loyihalar doirasida faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilinadigan qurilish materiallari, uskuna va jihozlar ro‘yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. “Toshkent tuman suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov) 2023-yil 15-noyabrga qadar ichimlik suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan mahallalarning 2024-2026-yillarda ichimlik suv ta’minotini yaxshilash dasturi qarorning 4-ilovasiga muvofiq;

2024-2026-yillarda respublika hududlarida ichimlik suv tarmoqlarini uy xo‘jaligigacha yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 5-ilovaga muvofiq;

2024-2026-yillarda iste’molchilarga ichimlik suv uchun hisoblagichlarni o‘rnatish reja-jadvali 9-ilovaga muvofiq;

2024-yilda “O‘zsuvta’minot” AJ tizim korxonalari obyektlarida quyosh panellarini o‘rnatish reja-jadvali 10-ilovaga muvofiq;

2024-2026-yillarda “O‘zsuvta’minot” AJ tizim korxonalari obyektlaridagi mavjud nasoslarni energiya tejamkor nasoslarga almashtirish reja-jadvali 11-ilovaga

muvofiq tasdiqlangan parametrlar doirasida ishlab chiqilsin.

5. Qaror bilan, mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan hududiy suv ishlab chiqarish, suv ta’minoti hamda magistral tarmoqlar tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash va rivojlantirish uchun ushbu tashkilotlarning maxsus maqsadli bank hisobvaraqlariga mablag‘larni yo‘naltirish yoki mazkur mablag‘lar hisobidan xarid qilingan mol-mulklarni ularga bepul o‘tkazishga ruxsat berilganligi;

Bunda, ushbu mablag‘lar va mol-mulklar “O‘zsuvta’minot” AJ ustav kapitaliga davlat ulushi sifatida kiritiladi va tegishliligi bo‘yicha tarkibidagi tashkilotlarning ustav kapitalidagi “O‘zsuvta’minot” AJ ulushi oshirilishi;

“Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov) **bir oy muddatda** mazkur qaror qabul qilingunga qadar “O‘zsuvta’minot” AJ tarkibidagi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun xarid qilingan molmulklarning ushbu tashkilotlarga o‘tkazilishini ta’minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Qaror bilan belgilangan:

“O‘zsuvta’minot” AJning davlat ulushi bo‘yicha aksiyador funksiyasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amalga oshirilishi;

“O‘zsuvta’minot” AJning hududiy magistral suv ta’minoti tashkilotlari xususiylashtirilmasligi;

avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirishda mavjud ichimlik va oqova suv tizimlarini ko‘chirish yoki qayta tiklash bilan bog‘liq ishlar yo‘l qurish va ta’mirlash loyihalarida ko‘zda tutilishi inobatga olinsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 25-martdagi
102-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyat hokimining
2023-yil 6-noyabrdagi
542-10-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ichimlik suv ta’minoti va oqova suv tizimini takomillashtirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
I. Ichimlik suv ta’minoti tashkilotlarining ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi xizmatini kengaytirish				
1.	Barcha loyihalarda ichimlik va oqova suv inshootlari va tarmoqlaridagi suv hisobini raqamlashtirish.	Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi barcha loyihalarda ichimlik suv tarmoqlarini aholi xonadonlarigacha yetkazib berish bilan birga yagona billing bazada hisobga olinadigan hisoblagichlar o‘rnatilishini majburiy etib belgilashni loyihaviy hujjatlarda ko‘zda tutish.	Doimiy	“Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov)
2.	Oqova suv tarmoqlariga me’yordan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarni (qoramol terisini, qog‘ozni va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, matolarni bo‘yash, yog‘-moy, neft va gaz mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda parrandachilikka ixtisoslashgan korxonalar va qoramol kushxonalari chiqindilari) oqizganlik uchun amaldagi kompensatsiya miqdorini keskin oshirish.	Tegishli normativ huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 1-may	Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo’limi (B.Eshnazarov), “Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov)

3.	Yangi qurilayotgan ko‘p kvartirali uylar hamda yakka tartibdagi uy-joylarning sovuq va issiq suv hisoblagichlarini xonadon (kvartira)larning tashqarisida (zinapoyalar, yerto‘lalar yoki boshqa qismida) o‘rnatilishini ta’minlash.	1. Ko‘p kvartirali uylar hamda yakka tartibdagi uy-joylarni qurish to‘g‘risidagi shaharsozlik normalari va qoidalarini xatlovdan o‘tkazish. 2. Shaharsozlik normalari va qoidalariga sovuq va issiq suv hisoblagichlarini xonadon (kvartira)larning tashqarisida (zinapoyalar, yerto‘lalar yoki boshqa qismida) o‘rnatilishi bo‘yicha o‘zgartirishlarni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.	2023-yil 1-dekabr 2024-yil 1-yanvar	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo’limi (N.Bazarbaev)
4.	Bittadan shahar yoki tumanda ichimlik suvni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan tizimni samarali nazorat qilish va yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha namunali tizimni joriy etish.	1. Tanlangan hududda mavjud ichimlik suv inshootlari, tarmoqlari va yakuniy iste’molchilarni to‘liq suv hisoblagichlar bilan jihozlash. Bunda, yakuniy iste’molchilar ko‘rsatkichlarini to‘siqlarsiz olinishi uchun hisoblagichlarni xonadonlar tashqarisiga o‘rnatilishini inobatga olish. 2. Ichimlik suvni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonda yo‘qotishlar hajmini minimal darajaga tushirish.	2024-yil 1-sentabr 2024 yil 1 dekabr	“Toshkent tuman suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov)

5.	Ichimlik suv va oqova ob’ektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish.	Mavjud ichimlik suv va oqova suv ob’ektlarining to‘liq xatlovi natijasida ularning eskirish darajasidan kelib chiqib, 2024 — 2026 yillarda modernizatsiya va rekonstruksiya qilinadigan ob’ektlar ro‘yxatini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda, mazkur ob’ektlarni rekonstruksiya qilish xarajatlari magistral suv tarmoqlari, hududiy suv ishlab chiqarish va suv ta’minoti tashkilotlarining tariflarida inobatga olinishi ta’minlanadi.	2024-yil 1-yanvar	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo’limi (N.Bazarbaev), Iqtisodiyot va moliya bo'lmi (B.Abduraxmonov), “Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov),
6.	Ichimlik suv va oqova suv inshootlari hamda tarmoqlarini xatlovdan o‘tkazish.	Ichimlik suv va oqova suv inshootlari hamda tarmoqlarini xatlovdan o‘tkazish hamda ularni yangi tashkil etilayotgan tashkilotlarga o‘tkazish.	2024-yil 1-fevral	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi vakili “Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov),
II. Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda sohaning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish				

7.	Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasini transformatsiya qilish.	1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘rta muddatga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish: global iqlim o‘zgarishi sharoitida ichimlik va oqova suv xizmatlari sohasining biznes-modeli konsepsiyasini amalga kiritish; asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish; inson resurslarini boshqarish, xodimlar malakasini oshirish; moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish, buxgalteriya, soliq va boshqaruv hisobini joriy etish, tarif siyosati va metodologiyasini takomillashtirish; aktivlarni boshqarish, xaridlar va ta’minot yondashuvlarini belgilash; raqamlashtirish va axborot texnologiyalari bilan to‘liq qamrab olish. 2. “Ernst and Young Advisory” tashkilotini jalb qilgan holda, “O‘zsuvta’minot” AJni transformatsiya qilish.	2024-yil 1-oktabr 2023-2025 -yillar	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi vakili, “Toshkent tuman suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov)
8.	“O‘zsuvta’minot” AJ va uning tizim tashkilotlari uchun Savdo-sanoat palatasiga a’zolik badali miqdorini maqbullashtirish.	“O‘zsuvta’minot” AJ va uning tizim tashkilotlarining Savdo sanoat palatasiga a’zolik badali miqdorini kamaytirish.	2023-yil 1-dekabr	Savdo-sanoat palatasining Toshkent tumani bo’lim (A.Inagamov), “Toshkent tuman suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov)

e-qaror.gov.uz 542-10-0-Q/23
11

9.	“O‘zsuvta’minot” AJ va uning tizim tashkilotlari ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr yig‘majildi (pasporti)ni shakllantirish uchun undiriladigan to‘lovlarni ikki yil muddat ichida bo‘lib bo‘lib to‘lash.	Transformatsiya doirasida Kadastr agentligi va “O‘zsuvta’minot” AJ va uning tizim tashkilotlarining ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr yig‘majildi (pasporti)ni shakllantirish uchun undiriladigan to‘lovlarni ikki yil muddatda to‘lash bo‘yicha shartnoma tuzish.	2024-yil 1-fevral	Kadastr agentligining viloyat bo’limi Toshkent tumani bo’limi boshlig’i (Z.Xayitov), Davlat kadastrlari palatasi viloyat bo’limi Toshkent tumani bo’limi boshlig’I v.v.b (O.Xoldorov), “Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N. Niyazov)
10.	Aholi punktlarini maxsus avtotransport vositalari orqali ichimlik suv bilan ta’minlash hamda ichimlik suv ta’minoti tashkilotlarining dispetcherlik va avariya xizmati faoliyatini takomillashtirish.	1. Raqamlashtirish vositalarini joriy qilgan holda tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan markazlashgan ichimlik suv ta’minoti yetib bormagan aholi punktlarini maxsus avtotransport vositalari orqali ichimlik suv bilan ta’minlash choralarini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. 2. Axborot texnologiyalarni qo‘llagan holda mavjud avtomobil va maxsus texnika parkini real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan yagona kuzatish tizimiga (GPS) ulash choralarini ko‘rish.	2023-yil 1-dekabr 2024-yil 1-yanvar	“Toshkent tumani suv ta’minoti” MChJ filiali (N.Niyazov),
III. Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasida bilim va tajribalarni oshirish hamda jamoatchilik nazorati				